

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**ISMAILOV ILXOM TURSUNBAYEVICH**

**URBANIZATSIYA JARAYONLARINI BASHORATLASHDA SUN'IY  
INTELLEKTGA ASOSLANGAN MODEL VA ALGORITMLAR**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Technical Sciences**

**Ismailov Ilxom Tursunbayevich**

Urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda sun'iy intellektga asoslangan model va  
algoritmlar.....3

**Исмаилов Илхом Турсунбаевич**

Модели и алгоритмы искусственного интеллекта в прогнозировании  
урбанизационных процессов.....23

**Ismailov Ilkhom Tursunbayevich**

Artificial Intelligence Models and Algorithms in Forecasting Urbanization  
Processes.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....46

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI  
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**ISMAILOV ILXOM TURSUNBAYEVICH**

**URBANIZATSIYA JARAYONLARINI BASHORATLASHDA SUN'IY  
INTELLEKTGA ASOSLANGAN MODEL VA ALGORITMLAR**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4193 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.airi.uz](http://www.airi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Muxamediyeva Dildora Kabilovna**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Rustamov Nasim Tulegenovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yusupov Ozod Rabbimovich**  
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Muhammad-al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali**

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13/30.12.2021.T.142.01 ilmiy kengashning 2025 yil «21» fevral soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent sh., M.Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17-A uy. Tel.: (99871) 2634198).

Dissertatsiya ishi bilan raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti axborot resurs markazida tanishish mumkin. (registratsiya raqami № 54). (Manzil: 100125, Toshkent sh., M.Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17-A uy. Tel.: (99871) 2634198).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «8» fevral kuni tarqatilgan.  
(2025 yil «16» yanvar dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)



**N.Ravshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**F.M. Nuraliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

**R.X. Xamdamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida shaharlarning jadal o'sishi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u iqtisodiy rivojlanish va aholi hayot sifatini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tomondan esa, u turli muammolarga olib kelishi mumkin. Bu muammolar jumlasiga atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik vaziyatning yomonlashuvi, transport tirbandliklari va infratuzilmaga ortiqcha yuklanish, uy-joy yetishmovchiligi va narxlarning oshishi kiradi. Bundan tashqari, urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga, qishloq hududlarining bo'shab qolishiga, shaharlarda jinoyatchilik darajasining oshishiga va shahar aholisining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun shaharlarning rivojlanishini to'g'ri bashorat qilish va urbanizatsiya jarayonlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ijobiy imkoniyatlardan samarali foydalanish, balki yuqorida sanab o'tilgan salbiy oqibatlarni oldindan ko'ra bilish va ularning oldini olish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Jahonda hozirgi vaqtda urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlash va modellashtirish uchun turli dasturiy ta'minotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Masalan, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Hindiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarda shaharlarning kengayishini bashoratlash, transport oqimlarini optimallashtirish, infratuzilmalarni rivojlantirish kabi masalalar sun'iy intellekt yordamida hal qilinmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari, matematik modellashtirish va mashinali o'rganish usullaridan foydalaniladi. Ammo, mavjud yechimlar rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitiga to'liq mos kelmaydi va mahalliy xususiyatlarni hisobga olmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda asosan, statistik ma'lumotlarga tayangan holda an'anaviy usullar qo'llaniladi. Intellekt modellashtirish usullaridan foydalanilmaydi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar uchun xos bo'lgan omillar, jumladan, infratuzilma darajasi, moliyaviy imkoniyatlar, urbanizatsiya sur'atlari va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar yetarlicha hisobga olinmaydi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sun'iy intellektga asoslangan yechimlar qimmat va murakkab bo'lishi mumkin.

Respublikamizda ham shaharlarning kengayishi, aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, transport oqimlarini optimallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash kabi dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Mamlakatimizdagi urbanizatsiya jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, rivojlangan davlatlardan farq qiladi. Shuning uchun, urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda sun'iy intellektga asoslangan yangi modellar va algoritmlarni ishlab chiqish, rivojlanayotgan mamlakat sharoitida ularni qo'llash muammolarini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-son, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-6079-son va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari hamda “Sun’iy intellekt texnologiyalarni jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son, “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son va “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-404-son qarorlarida urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan bo‘lib, ushbu me‘yoriy hujjatlarni amalga oshirish mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda sun’iy intellektdan foydalanish masalalarini hal qilishga xizmat qiladi, shuningdek, mazkur dissertatsiya tadqiqoti aynan shu dolzarb muammolarni qamrab olgan bo‘lib, urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda sun’iy intellektdan foydalanish masalalarini yoritishga qaratilgan va tadqiqot natijalari mamlakatimiz sharoitiga mos sun’iy intellektga asoslangan modellar va algoritmlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish orqali ushbu sohada mavjud muammolarni hal etishga muayyan darajada hissa qo‘shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlash va tahlil qilish borasida jahon olimlarining izlanishlari keng qamrovli tadqiqotlarni o‘z ichiga olmoqda. Jumladan, Mingxing Chen, Devid Sattertveyt, Maher Milad Aburas, Anasua Chakraborti, Maykl Batti, Karen Seto, Syuyetsao Li, Je Chu kabi xorijlik olimlar ushbu sohadagi ilmiy ishlarni olib bormoqdalar. Ular turli sun’iy intellekt usullari, masalan, mashinaviy o‘rgatish algoritmlari, chuqur neyron tarmoqlari, chiziqli regressiya kabi modellardan foydalangan holda urbanizatsiya omillarini aniqlash, ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va istiqboldagi holatlarga bashoratlar qilish bo‘yicha samarali yechimlar ishlab chiqmoqdalar.

Tadqiqotlarda sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, statistik ko‘rsatkichlar, mahalliy ma’lumotlar bazalari kabi turli xil manba va ma’lumotlardan foydalanilmoqda. Ushbu ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va qo‘shimcha ustuvor omillarni aniqlash urbanizatsiya jarayonlarining keng qamrovli modelini yaratish imkonini beradi. Xorijlik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellektga asoslangan modellar shaharlarning istiqboldagi o‘sishini bashorat qilish, tejamkor transport infratuzilmasini yaratish, aholining ehtiyojlariga mos ravishda uy-joy va ijtimoiy infratuzilmalarni qurish kabi dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish va sun'iy intellekt sohasi bo'yicha M.M.Kamilov, T.F.Bekmurodov, Sh.X.Fozilov, N.Mirzayev, D.T.Muxamediyeva, N.S.Mamatov, S.S.Rajabov, D.K.Muxamediyeva kabi olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham ushbu dissertatsiya ishiga nazariy va amaliy jihatdan muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ular sun'iy neyron tarmoqlari, mashinaviy o'rgatish usullari, modellashtirish va boshqa sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq holda BV-V-F4-011 «Noaniqlik sharoitlarida ma'lumotlarni intellektual tahlilining noravshan-nokorrekt masalalarini yechish usul va algoritmlari» (2017-2020) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar asosida urbanizatsiya darajasini hamda sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlar asosida hududlar o'zgarishini bashoratlash model va algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

urbanizatsiya jarayonlarni bashoratlash va ta'sir etuvchi omillarning analitik tahlili o'rganish;

ikki tasodifiy o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchash usulini qo'llagan holda belgilar fazosini qisqartirish asosida urbanizatsiya darajasini bashoratlash modeli ishlab chiqish;

sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlar asosida yer sirti qoplami ko'rinishdagi tasvirlarga o'tkazish algoritmi mashinaviy o'rgatish usulini qo'llash orqali takomillashtirish;

bosh komponentalar usuli asosida yer sirti qoplami tasvirlarini o'lchamini kamaytirish yondashuvi ishlab chiqish;

shahar kengayishini bashoratlash uchun chuqur neyron tarmoqlari asosida shahar hududini o'zgarishini baholash arxitektura ishlab chiqish;

mavjud va taklif etilgan algoritmlar asosida dasturiy ta'minot ishlab chiqish, eksprementlar o'tkazish hamda olingan natijalar asosida qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** ko'p belgilar bilan bog'liq urbanizatsiya darajasi va sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida hududlar o'zgarishini bashoratlash bilan bog'liq jarayonlar qaralgan.

**Tadqiqotning predmeti** statistik ma'lumotlar asosida urbanizatsiya darajasini bashoratlash va sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlari asosida shahar hududiy kengayishini usul va algoritmi hamda dasturiy ta'minotini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishning nazariy tadqiqotlari matematik analiz, statistik tahlil, tizimli tahlil, mashinaviy o'rgatish, chuqur o'qitish, tasvirlarni tanib olish,

jarayonlarni sinflashtirishning kompyuterli modelidan tajribalar asosi sifatida foydalanilgan hamda tadqiq qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ikki tasodifiy o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchash usulini qo'llagan holda belgilar fazosini qisqartirish asosida urbanizatsiya darajasini bashoratlash modeli ishlab chiqilgan;

sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlar asosida yer sirti qoplami ko'rinishdagi tasvirlarga o'tkazish algoritmi mashinaviy o'qitish usulini qo'llash orqali takomillashtirilgan;

bosh komponentalar usuli asosida yer sirti qoplami tasvirlarini o'lchamini kamaytirish yondashuvi ishlab chiqilgan;

shahar kengayishini bashoratlash uchun chuqur neyron tarmoqlari asosida shahar hududini o'zgarishini baholash arxitekturasini ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

urbanizatsiya darajasini bashoratlash algoritmlari asosida Samarqand viloyati misolida kelgusi 3 yil uchun urbanizatsiya darajasining bashorat qiymatlari hisoblangan;

urbanizatsiya darajasi va hududlar o'zgarishini bashoratlash model va algoritmlari uchun dasturiy modullar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda olingan natijalarning ishonchliligi intellektual tahlil, aniq vaziyatlarni modellashtirish hamda amaliy sohalaridagi tajribalar bilan ta'minlandi. Modelning adekvatligi real ma'lumotlar va tajriba sinovlarida tekshirilib, boshqa yechimlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shunday qilib, yaratilgan model va algoritm urbanizatsiyani bashoratlashda ishonchli natijalar bera olishi tasdiqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ahamiyati urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda sun'iy intellektga asoslangan yangi model va algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat. Yaratilgan modellar va algoritmlar urbanizatsiya omillarini noravshan sharoitlarda tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda aniq bashoratlar berish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shaharlarning kelgusidagi rivojlanishini oldindan aytib berish, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni rejalashtirish kabi dolzarb masalalarni hal qilishda qo'l keladi. Ishlab chiqilgan yechimlar shahar boshqaruvi tizimlarida qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati yaratilgan dasturiy mahsulotlar orqali shaharlarning hududiy kengayishini bashorat qilish va urbanizatsiya jarayonlarini monitoring qilish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi. Ushbu dasturiy vositalar shahar arxitektorlari, yo'l quruvchilar, transport muhandislari va boshqa mutaxassislar tomonidan qo'llanilishi mumkin. Natijada, shaharsozlik loyihalarining sifati oshadi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** urbanizatsiya darajasi va hududlar o'zgarishini bashoratlash uchun ishlab chiqilgan model va algoritmlar asosidagi ilmiy natijalar:



o'rama rekurrent neyron tarmoq arxitekturasida hududlar o'zgarishini bashoratlash uchun modeli Samarqand shahar me'moriy loyihalarini rejalashtirish maqsadida Samarqand viloyati hokimligi huzuridagi "AKT rivojlantirish markazi"da joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 2-maydagi № 02-02/240-son ma'lumotnomasi). Natijada shahar me'moriy loyihalarini rejalashtirish ish unumdorligini oshirish imkonini bergan.

urbanizatsiya darajasini bashoratlash modellari uchun o'zaro axborot o'lchovi asosida belgilar fazosini kamaytirish va lokal vaznli silliqashtirish strategiyasiga asoslangan kichik o'quv tanlanmalardan foydalanib urbanizatsiya darajasini bashoratlash algoritmlari Samarqand viloyati statistika boshqarmasida aholi punktlarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida qo'llangan (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 2-maydagi № 02-02/240-son ma'lumotnomasi). Natijada infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish jarayonini ketadigan vaqtni kamaytirish hamda bashoratlash aniqligini oshirish imkonini bergan.

sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlar asosida yer sirti qoplamasi tasvirlarga o'tkazish algoritmi va o'rama rekurrent neyron tarmoq arxitekturasida hududlar o'zgarishini bashoratlash uchun modeli Davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filialida yer kadastr ma'lumotlarini yangilash maqsadida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 2-maydagi № 02-02/240-son ma'lumotnomasi). Natijada yer kadastr ma'lumotlarini yangilash ish unumdorligini oshirishga imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatyasi.** Dissertatsiyaning asosiy nazariy va amaliy natijalari 8 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 14 ta ilmiy ishlarda e'lon qilingan, ulardan 6 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qaydlash guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

tadqiqot natijalarini joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Urbanizatsiyani bashoratlash masalasini yechishni analitik tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlash va modellashtirish bo'yicha mavjud usullar, muammolar va yondashuvlar tahlil qilingan. Urbanizatsiya jarayonlarining murakkabligi, ko'p omilliligi va dinamik tabiati tufayli ularni bashoratlash qiyin ekanligi ta'kidlangan. Mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. Xususan, ma'lumotlarning sifati, to'liqligi va ishonchliligi bilan bog'liq muammolar, modellarning murakkabligi, noaniqlik va tasodifiylik omillarini hisobga olish zarurati kabi masalalar yoritilgan. Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt usullarini qo'llash zarurati asoslab berilgan.

Shu bilan birga, dissertatsiyaning birinchi bobida urbanizatsiya jarayonlarini bashorat qilishning turli modellari tahlil qilingan bo'lib, unda logistik o'sish modeli shaharlarning vaqt davomida o'sish tendensiyalarini ifodalashda qo'llanilishi, hujayrali avtomatlar shaharsozlik o'zgarishlarini makonda modellashtirish imkonini berishi, agentga asoslangan modellar shaharda yashovchi aholining xatti-harakatlarini simulyatsiya qilishi, Markov zanjiri urbanizatsiya holatlarining o'zgarishini ehtimoliy tarzda ifodalashi, neyron to'rlar murakkab nochiziqliliklarni o'rganishda samarali ekanligi, geofazaviy modellar makonga oid ma'lumotlarni integratsiyalashda qo'l kelishi va gibrid modellar yuqoridagi yondashuvlarning afzalliklarini birlashtirish imkonini berishi batafsil yoritilgan, shuningdek har bir modelning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilingan. Modellarning o'zaro taqqoslanishi asosida ularning qo'llanilish sohalari va sharoitlari aniqlab berilgan.

Bundan tashqari, urbanizatsiya jarayonlarini bashoratlashda asosiy e'tibor uchta muhim masalaga qaratilgan bo'lib, birinchi masalada urbanizatsiya darajasining vaqt bo'yicha o'zgarishini bashoratlash ko'rib chiqilgan, ikkinchi masalada chuqur neyron tarmoqlar yordamida shahar hududining maydonini bashoratlash usuli taklif etilgan, uchinchi masalada esa urbanizatsiya darajasi va shahar hududi maydoni orasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun allometrik o'sish modeli qo'llanilgan. Ushbu masalalarni yechish orqali shaharlarning kelajakdagi rivojlanishini kompleks baholash va samarali shahar rejalashtirish qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Dissertatsiyaning **“Urbanizatsiyani darajasini bashoratlashda sun'iy intellektga asoslangan model va algoritmlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida predmet sohasining bayoni keltirilgan.

Urbanizatsiyani bashoratlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash qismida demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va infrastrukturaviy belgilar o'rganildi. Bu ko'rsatkichlar urbanizatsiya darajasini bashorat qilishda asosiy belgilar sifatida qaralgan. Belgilar soni ko'p bo'lgani uchun ularni kamaytirish masala kelib chiqildi va mutual information (MI) asosida belgilar fazosini kamaytirish algoritmi ishlab chiqildi.

Urbanizatsiya darajasiga ta'sir qiluvchi belgilarni MI asosida belgilarni tanlash algoritmi quyida keltirilgan.

**1-qadam.**  $X = \{x_1, x_2, \dots, x_m\}$  va  $(Y)$  belgilar va javob(metka) qiymatlari kiritish.

Quyidagi shaklda kiritish amalga oshiriladi

$$X = \begin{bmatrix} x_{1,1} & x_{1,2} & \dots & x_{1,m} \\ x_{2,1} & x_{2,2} & \dots & x_{2,m} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ x_{n,1} & x_{n,2} & \dots & x_{n,m} \end{bmatrix}, \quad Y = \begin{bmatrix} y_1 \\ y_2 \\ \mathbf{M} \\ y_m \end{bmatrix},$$

bu yerda  $x_1, x_2, \dots, x_m$  belgilarni ifodalovchi vektor.

**2-qadam.**  $X' = \emptyset$  qiymatni ta'minlash.

**3-qadam.** MI o'lchovini hisoblash:

$$I(x_j; Y) = \sum_{j=1}^n \sum_{l=1}^m P(x_j, y_l) \log \frac{P(x_j, y_l)}{P(x_j)P(y_l)},$$


bu yerda  $P(x_j, y) - x_j$  va  $y$  o'rtasidagi qo'shma ehtimollik,  $P(x_j) - x_j$  ning cheklangan ehtimollik taqsimoti,  $P(y) - y$  ning cheklangan ehtimollik.

**4-qadam.** MI o'lchovi miqdori bo'yicha belgilarni tanlash. Har bir belgi bo'yicha  $MI_j > \delta$  shartni tekshirish. Agar shart bajarilsa,  $x_j$  belgi,  $X'$  belgilar to'plamiga kiritish.

**5-qadam.** Algoritmni yakunlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti ([www.stat.uz](http://www.stat.uz))dan olingan urbanizatsiyaga ta'sir etuvchi 131 ta belgilar ishlab chiqilgan algoritm asosida quyidagicha kamaytirish amalga oshirildi. Algoritmida  $\delta = 0.5$  qilib tanlanildi, Ushbu qiymat bo'yicha algoritmni bajarish natijasida belgilar fazosi 32 ta belgiga keltirildi. 1-rasmda shartni qanoatlantiruvchi belgilar keltirilgan. Yangi tanlanilgan 32 ta belgilar matrisasi quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

$$X_{32} = \begin{bmatrix} x_{1,(1)} & x_{1,(2)} & \dots & x_{1,(32)} \\ x_{2,(1)} & x_{2,(2)} & \dots & x_{2,(32)} \\ \dots & \dots & \ddots & \dots \\ x_{n,(1)} & x_{n,(2)} & \dots & x_{n,(32)} \end{bmatrix}.$$



### 1-rasm. Mutual information belgilar fazosini kamaytirish algoritmi asosida tanlab olingan informativ belgilar

Urbanizatsiya darajasini bashorat qilish uchun K-eng yaqin qo'shni (K-Nearest Neighbors, KNN) mashinaviy o'rgatish algoritmi qo'llanildi. U urbanizatsiyaga ta'sir etuvchi omillarning o'xshashligi asosida bashorat qiladi, bunda bashorat qilinayotgan qiymat unga yaqin "k" ta qo'shni qiymatlar asosida aniqlandi.

Tadqiqotda urbanizatsiya darajasi va unga ta'sir qiluvchi 32 ta omil o'rganiladi. Ma'lumotlar hajmi kichik bo'lgani sababli, bashorat aniqligini oshirish uchun KNN modeli lokal vaznli chiziqli regressiya (Locally Weighted Scatterplot Smoothing, LOWESS) yondashuvi bilan birgalikda qo'llanildi.

LOWESS vaqt qatorlaridagi ma'lumotlarni silliqlash uchun ishlatiladi va lokal regressiya orqali murakkab tamoyillarni aniqlaydi. LOWESSdan olingan silliqlangan qiymatlar KNN modeli uchun qo'shimcha o'zgaruvchi sifatida xizmat qiladi.

LOWESS vaqt qatorlaridagi ma'lumotlarni silliqlash va bashoratlash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich. Dastlabki ma'lumotlar tayyorlanadi.
- 2-bosqich. LOWESS orqali vaqt qatorlari silliqlanadi.
- 3-bosqich. Silliqlangan qiymatlar asosiy ma'lumotlarga qo'shiladi.
- 4-bosqich. KNN modeli quriladi.
- 5-bosqich. Urbanizatsiya darajasi bashorat qilinadi.

Urbanizatsiya darajasini bashoratlash algoritmi quyidagi qadamlardan iborat.

**1-qadam.**  $X^l$  o'quv tanlanmani kiritish.

**2-qadam.**  $\gamma_i = 1$ ; ( $i = 1, \dots, l$ ;) dastlabki koeffitsient qiymatlari o'rnatish.

**3-qadam.** Har bir o‘quv tanlanmadagi obyekt ( $i=1,...,l$ ) uchun siljuvchi nazorat baholashni hisoblash:

$$a_i := a_h(x_i; X^l \setminus \{x_i\}) = \frac{\sum_{j=1, j \neq i}^l y_j \gamma_j K\left(\frac{\rho(x_i, x_j)}{h(x_i)}\right)}{\sum_{j=1, j \neq i}^l \gamma_j K\left(\frac{\rho(x_i, x_j)}{h(x_i)}\right)},$$

$$\varepsilon_i = |a_h(x_i; X^l \setminus \{x_i\}) - y_i|.$$

**4-qadam.** Har bir o‘quv tanlanmadagi obyekt ( $i=1,...,l$ ) uchun  $\gamma_i$  koeffitsient yangi qiymatlarini hisoblash:

$$\gamma_i := K(|a_i - y_i|),$$

bu yerda  $\tilde{K}(|a_i - y_i|) = K_Q\left(\frac{|a_i - y_i|}{6 \cdot \text{med}\{\varepsilon_i\}}\right)$ ,  $\text{med}\{\varepsilon_i\}$  xatolarning variatsion

qatorining mediana qiymati,  $K_Q$  kvadratik yadro funksiyasi.

**5-qadam.**  $\gamma_i$  koeffitsient turg‘unlikka tekshiriladi. Agar turg‘un bo‘lsa keyingi qadamga o‘tish, aks holda 3-qadamga o‘tish.

**6-qadam.** Algoritmni yakunlash.

Algoritmni o‘qitish asosida quriladigan  $a$  algoritmning  $\gamma_i$  koeffitsientlari aniqlanadi. Bunda  $K\left(\frac{\rho(x_i, x_j)}{h(x_i)}\right) = \exp\left(-2\left(\frac{\rho(x_i, x_j)}{h(x_i)}\right)^2\right)$  Gauss yadro funksiyasidan foydalanildi.

Bu algoritm asosida keyingi uch yil uchun urbanizatsiya darajasi bashorat qilinadi (1-jadval).

**1-jadval.**

**KNN modeli asosida keyingi 3 yillik urbanizatsiya darajasini bashoratlash natijalari**

Yillar	Bashorat qilingan urbanizatsiya darajasi
2024	13.955564%
2025	14.006889%
2026	14.084194%

Dissertatsiya ishining **“Shahar hududiy kengayishini bashoratlash masalasini yechish model va algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida urbanizatsiyada shahar hududiy kengayishini bashoratlash bo‘yicha bir nechta algoritmlar ishlab chiqilgan.

Landsatdan olingan tasvirlarni raqamli ko‘rinishga o‘tkazish quyidagi bosqichlardan iborat.

**1-qadam.** Hududni aniqlash (ROI - Region of Interest). Hudud  $\Omega$  ni aniqlash ifodasi quyidagicha:

$$\Omega = \{(x, y) | x_1 \leq x \leq x_2, y_1 \leq y \leq y_2\},$$

bu yerda  $(x_1, y_1)$  va  $(x_2, y_2)$  - to'g'ri to'rtburchak shaklini ifodalovchi koordinatalar.

**2-qadam.** Masofadan olingan tasvirlar vaqtlar to'plamini shakllantirish:

$$T = \{t_1, t_2, \dots, t_n\}, \quad t_i = t_1 + i \cdot \Delta t.$$

**3-qadam.**  $T$  vaqt to'plami asosida masofadan zondlash tasvirlarni to'plamini 7 ta kanal bo'yicha shakllantirish:

$$L^i = \{B_1, B_2, B_3, B_4, B_5, B_6, B_7\},$$

bu yerda  $B_1$  : ko'rinmas ko'k tarmoq;  $B_2$  : ko'k;  $B_3$  : yashil;  $B_4$  : Qizil;  $B_5$  : infraqizil;  $B_6$  : Qisqa to'lqinli infraqizil (Shortwave Infrared 1, SWIR1);  $B_7$  : Qisqa to'lqinli infraqizil (Shortwave Infrared 2, SWIR2).

**4-qadam.** Bulut va qorlar xalaqitlarga ishlov berish. Spektral kanallarda bulut va qor xalaqitlarni aniqlab, tasvirdagi xalaqit sohasini chiqarib tashlash amalga oshiriladi:

$$I(x, y) = I(x, y) \cdot \text{Mask}_{\text{binar}}(x, y),$$

bu yerda  $\text{Mask}_{\text{binar}} = \begin{cases} 0, & \text{agar pikselda bulut yoki qor mavjud bo'lsa,} \\ 1, & \text{aks holda.} \end{cases}$

**5-qadam.** Spektral kanallar bo'yicha indeksni hisoblash. Yer sirti qoplam turini aniqlash uchun spektral indeksni hisoblash:

$$\text{NDVI} = \frac{B_5 - B_4}{B_5 + B_4},$$

$$\text{NDBI} = \frac{B_6 - B_5}{B_6 + B_5},$$

$$\text{MNDWI} = \frac{B_3 - B_6}{B_3 + B_6},$$

$$\text{BSI} = \frac{(B_6 + B_4) - (B_5 + B_2)}{(B_6 + B_4) + (B_5 + B_2)},$$

bu yerda NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) – O'simlik qoplam uchun. NDBI (Normalized Difference Built-up Index) - Qurilish yoki antropogen hududlar uchun. MNDWI (Modified Normalized Difference Water Index) - Suv hududlari uchun. BSI (Bare Soil Index) - Bo'sh yoki ochiq yerlar uchun. BSI ochiq tuproq yoki yer yuzasini aniqlash uchun ishlatiladi.

**6-qadam.** O'quv namunalarini yig'ish. Yer sirti qoplam turlarini farqlash uchun har bir turga mos o'quv xususiyatlari yig'iladi.

Xususiyatlar to'plamini quyidagicha keltirib olamiz:

$$X = \{\text{NDVI}, \text{NDBI}, \text{MNDWI}, \text{BSI}\}.$$

Yer sirti qoplam turini aniqlash (Y):

$$Y = \{0, 1, 2, 3, 4\},$$

bu yerda 0: Shahar chegarasi (qora), 1: Qurilish hududi (qizil), 2: Vegetatsiya (yashil), 3: Suv (ko'k), 4: Bo'sh yerlar (kulrang)

**7-qadam.** Tasniflash uchun tasodifiy o‘rmon modelini o‘qitish. O‘quv xususiyatlari va yer sirti qoplami turini bog‘lashni quyidagicha ifodalab olamiz:

$$f(X) = \text{RandomForest}(X).$$

Bu algoritim  $m$  ta daraxt  $(T_1, T_2, \dots, T_m)$  bo‘yicha ishlaydi:

$$f(X) = Q\{T_1(X), T_2(X), \dots, T_m(X)\}.$$

**8-qadam.** Yer sirti qoplami tasvirlarini yaratish. Har bir pixel uchun spektral indekslar hisoblanadi va tasniflagich orqali yer sirti qoplami turi aniqlanadi:


$$\text{Yer\_qoplami}(x, y) = f(X(x, y)).$$

Natijalarni vizuallashtirish:


Tasniflash natijalari quyidagi rangli xarita ko‘rinishida tasvirlandi, bu esa turli yer sirti qoplami turlarini oson farqlash imkonini beradi.

Ushbu algoritim asosida tanlanmalar(o‘quv, nazorat tanlanmalari) shakllantiriladi.


2-rasmda taklif etilgan algoritimni qo‘llash natijalari keltirilgan.




a)



b)



c)



d)

**2-rasm. Samarqand viloyatning 2022 yildagi olingan masofadan olingan kanallar ma‘lumotlariga keltirilgan algoritimni qo‘llash natijalari: a) NDBI; b) NDVI c) MNDWI d) BSI**

Tahlil samaradorligini oshirish maqsadida bosh komponentlar tahlili usuli yordamida yer sirti qoplami tasvirlarning belgilar fazosi kamaytirildi. Bu jarayon natijasida olingan ixcham, ammo informativ ma‘lumotlar to‘plami chuqur o‘qitish modelini samarali o‘qitish imkonini berdi.

**1-qadam.** Ma‘lumotlarni tayyorlash.

Yer sirti qoplami tasvirlarini  $X$  matritsa ko‘rinishida ifodalanadi, bu yerda har bir ustun bir pikselni, har bir satr esa spektral bandni ifodalaydi:

$$X = [x_1, x_2, \dots, x_N],$$

bunda  $N$  – piksellar soni.



**2-qadam.** Ma'lumotlarni standartlashtirish:

$$\bar{X} = X - \mu,$$

bu yerda  $\mu$  – har bir band uchun o'rtacha qiymat vektori.

**3-qadam.** Kovariatsiya matritsasini hisoblash:

$$C = \frac{1}{n-1} * \bar{X}^T * \bar{X}.$$

**4-qadam:** Xos qiymatlar va xos vektorlarni hisoblash.

Kovariatsiya matritsasi  $C$  uchun xos qiymatlar va xos vektorlar topiladi:

$$C * v = \lambda * v,$$

bu yerda  $\lambda$  – xos qiymatlar,  $v$  – xos vektorlar.

**5-qadam.** Asosiy komponentlarni tanlash.


Xos qiymatlarni kamayish tartibida saralab, eng katta  $k$  ta xos qiymatga mos keluvchi xos vektorlarni tanlaymiz. Bu vektorlar proyeksiya matritsasi  $W$  ni tashkil qiladi.

**6-qadam:** Ma'lumotlarni proyeksiyalash:

$$Y = W^T * \bar{X},$$

bu yerda  $Y$  – kamaytirilgan o'lchamli ma'lumotlar.

Natijada 3-rasmda keltirilgan tasvirlar hosil bo'ladi.



**3-rasm. Bosh komponentalar tahlili asosida yer sirti qoplami tasvirlarni belgilar fazosini kamaytirish**

Bosh komponentalar tahlil usuli orqali qayta ishlangan yer sirti qoplami tasvirlari muhim natijalarni ko'rsatdi. Tasvirlar 3 ta asosiy komponentaga ajratilgan bo'lib, birinchi komponentada eng ko'p axborot saqlanib, asosiy yer qoplami sinflari aniq ajratilgan. Ikkinchi komponentada biroz kamroq ma'lumot saqlangan, ammo asosiy sinflar hali ham yaxshi ko'rinib turibdi. Uchinchi komponentada eng kam axborot saqlanib, qora chiziqlar bilan chegaralangan shahar hududi aniq ifodalangan. Bu bosh komponentalar tahlil usuli yordamida qayta ishlangan tasvirlar ConvLSTM algoritmi uchun sifatli kirish ma'lumotlari bo'lib xizmat qiladi, chunki ularda shahar hududining chegaralari va o'zgarish dinamikasi aniq ko'rsatilgan. Bu esa ConvLSTM yordamida shaharning kelajakdagi hududiy kengayishini yanada aniqroq bashorat qilish imkonini beradi. Natijada bosh komponentalar orqali ma'lumotlar hajmini kamaytirib, shu bilan birga asosiy yer sirti qoplami sinflarining xususiyatlarini saqlab qolish mumkin bo'ldi.



Shahar kengayishini bashorat qilishda ConvLSTM arxitekturalaridan foydalanildi.

Yer sirti qoplami tasvirlarini ConvLSTM yordamida vaqt ketma-ketligi asosida bashoratlash - bu konvolyutsion rekurrent neyron tarmoqlar (ConvLSTM) yordamida fazoviy ma'lumotlarning vaqt dinamikasiga asoslanib, tizimning kelajak holatlarini bashorat qilish jarayonidir. Bizda 1990 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davr uchun 720 ta yer sirti qoplami tasviri mavjud va biz bu ma'lumotlardan 2023 yil uchun yer sirti qoplami bashorat qilish uchun foydalanamiz.

1. Ma'lumotlarni ifodalash.

1990 yildan 2022 yilgacha bo'lgan yer sirti qoplami ma'lumotlarimizni to'rt o'lchovli tenzor ko'rinishida ifodalab olamiz:

$$X \in R^{T \times H \times W \times C},$$

bu yerda  $T = 720$  - vaqt qadamlari (tasvirlar) soni,  $H$  - har bir tasvirning balandligi (vertikal bo'yicha piksellar soni),  $W$  - har bir tasvirning kengligi (gorizontal bo'yicha piksellar soni),  $C$  - kanallar soni (bu bizda RGB tasvirlar,  $C = 3$ ).

2. ConvLSTM: Model qatlami.

ConvLSTM (Konvolyutsion Uzoq Qisqa Muddatli Xotira) - bu fazoviy ma'lumotlar bilan ishlash uchun standart LSTM ning kengaytirilgan varianti bo'lib, unda holatlar va kirishlar ustidagi operatsiyalar konvolyutsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu vaqtga bog'liq bog'liqliklarni ham, tasvirlar piksellari o'rtasidagi fazoviy o'zaro bog'liqliklarni ham hisobga olish imkonini beradi.

ConvLSTM ning asosiy ko'rinishi quyidagicha hisoblanadi:

Har bir  $t$  vaqt qadami uchun ConvLSTM quyidagi ifodalardan foydalanib o'z holatini yangilaydi:

Unutish geyti  $f_t$  (qaysi ma'lumotni unutish kerakligini aniqlaydi)

$$f_t = \sigma(W_f * X_t + U_f * h_{t-1} + V_f \odot C_{t-1} + b_f).$$

Kirish geyti  $i_t$  (qaysi yangi ma'lumotni saqlash kerakligini aniqlaydi):

$$i_t = \sigma(W_i * X_t + U_i * h_{t-1} + V_i \odot C_{t-1} + b_i).$$

Yangi yacheyka holatining qiymati  $\tilde{C}_t$ :

$$\tilde{C}_t = \tanh(W_c * X_t + U_c * h_{t-1} + b_c).$$

Yachayka holatini yangilash:

$$C_t = f_t \odot C_{t-1} + i_t \odot \tilde{C}_t.$$

Chiqish geyti  $o_t$  (holatning qaysi qismini chiqishga uzatishni hal qiladi)

$$o_t = \sigma(W_o * X_t + U_o * h_{t-1} + V_o \odot C_t + b_o).$$

Yashirin holatni yangilash:

$$h_t = o_t \odot \tanh(C_t).$$

bu yerda  $X_t$  -vaqt qadamida  $t$  dagi kirish tasvir,  $h_{t-1}$  -oldingi vaqt qadamidagi yashirin holat,  $C_{t-1}$  - oldingi vaqt qadamidagi hotira holati,  $f_t$  -unitilish geyti, avvalgi ma'lumotlarni qanchalik unitilishi kerakligini aniqlaydi,  $i_t$  -kirish geyti, yangi ma'lumotlarni qanchalik saqlash kerakligini aniqlaydi,  $\tilde{C}_t$  -yangi potensial xotira

